

MENGZIYO SAFAROV TABIAT KUYCHISI

Rajabova Mo'jiza Husan qizi

TerDU o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15252835>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiatsevar yozuvchi mengziyo safarov hayoti va ijodi tahlil qilinadi. Adibning asarlarining bosh g'oyasi tabiat haqida bo'lib, unda tabiatni asrash, ekologiyaga zarar yetkazmaslik, hayvonlarni asrab avaylash to'g'risida so'z borgan. Mengziyo Safarov mohir qalamkash sifatida yoritayotgan mavzuning tub mohiyatiga katta ahamiyat bergan yozuvchidir.

Kalit so'zlar: Mengziyo Safarov hayoti, ijod yo'li, badiiy asarlari, tabiat va jonzorlar mavzusi.

MENGZIYO SAFAROV IS A NATURE LOVER

Abstract. This article analyzes the life and work of the nature-loving writer Mengziyo Safarov. The main idea of the writer's works is about nature, and he talks about preserving nature, not harming the ecology, and protecting animals. Mengziyo Safarov, as a skilled writer, is a writer who attaches great importance to the essence of the subject he is covering.

Keywords: Mengziyo Safarov's life, creative path, artistic works, the theme of nature and creatures.

МЕНГЗИЁ САФАРОВ – ПЕВЕЦ ПРИРОДЫ

Аннотация. В статье анализируется жизнь и творчество писателя-природоведа Мэнзиё Сафарова. Основная идея произведений писателя – природоохранная, включающая сохранение природы, непричинение вреда экологии, защиту животных. Мэнзиё Сафаров — талантливый писатель, придающий большое значение сути освещаемой им темы.

Ключевые слова: жизнь Мэнзиё Сафарова, творческий путь, художественные произведения, природа и живые существа.

Mengziyo Safarov – pevets prirody.

O'zbek badiiy adabiyotida katta hissa qo'shgan adabiyot ixlosmandlaridan biri Mengziyo Safarov. O'zining badiiy tafakkuri, uslubi, ijodkorliligi va tabiatsevarligi bilan ajralib turuvchi adib 1938- yil Denov tumani Hayrabot qishlog'ida tavallud topgan. Otasi Rahmonquli (Soatov) Safarov Oltinsoy tumani Jobu qishlog'ida yashagan.

Nihoyatda boy savdogarlardan biri bo'lgan. Revolyutsiyadan keyin odamlarning ig'vo, tuxmatlari bilan qamalgan. Shu sababli familiyasini Soatovdan Safarovga o'zgartirishga majbur bo'lgan va oilasini Oltinsoydan Denovga ko'chiradi. Otasi asosan ko'pxotinlikda ayblanib Toshkentga surgun qilingan, qamoqqa olingan va o'sha yerda vafot etgan. Ota vafot etgach oradan uch oy o'tgach M. Safarov dunyoga kelgan. Uning tug'ilgan sanasi bazi ma'lumotlarda 10-iyun deb ko'rsatilgan.

Ammo yozuvchining yaqinlari bilan suhbat olib borilganda adib tug'ilgan vaqtda qor yog'ganligini va otasining vafotidan alamzada onasi jahil ustida "Sen otangni boshiga yetding" deya chaqaloqni qor ustiga tashlaganda, yangalari chaqaloqni qorning ustidan olib unga qaraganligi haqida gapirib o'tdi. Adibning ikki akasi va bitta opasi bo'lgan. Mengziyo Safarov oilada kenja farzand bo'lgan. Shunday qilib oila Hayrabot qishlog'ida ham uzoq vaqt qolmaydi va Uzun tumaniga ko'chib ketadi. Adib maktab mazkur tumandagi umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qiydi. 1956-yilda maktabni bitiradi va poytaxtdagi oliygohga o'qishga topshiradi.

O'sha yili yozuvchining onasi olamdan o'tadi. Mengziyo Safarov Toshkentga Mengto'ra ismli o'rtog'i bilan birga boradi. Ikki o'rtoq hozirgi Toshkent milliy universitetiga tarix fakultetiga imtixon topshiradi.

Adib 5 baho bilan imtixonidan o'tadi ammo, o'rtog'i Mengto'ra 2 baho bilan imtixonidan o'ta olmaydi. Shunda M. Safarov ham o'qishni tashlab o'rtog'i bilan birga Hayrabot qishlog'iga qaytib kelib, Paxta tozalash sexida ish bo'lib ishlay boshlaydilar. Bir yil ishlagandan so'ng 1957-yilda yana o'qish istagi bilan Toshkentga boradilar va ikki o'rtoq ham Toshkent Milliy universiteti tarix fakutetiga o'qishga kiradi. Adib tabiatni sevganligi, tabiat uning borlig'i bo'lganligi sababli arxeologiya bo'limida o'qiydi. Shundan ko'rinadiki M. Safarov nafaqat tabiatsevarligi balki insonparvarligi, sadoqatliligi bilan ham ajralib turadi.

Insonni nihoyatda ulug'lagan adib yoshligidan adabiyotga qiziqishi yuqori bo'lgan.

Hatto maktab davrlarida qo'liga u bu narsa olib yeysan deb onasi, akalari pul berganda kitob sotib olavergan. O'sha vaqtlari loydan guvala yasab kichkinagina uycha qurgan. U yerga faqat bitta stol, bitta stul, kichina javon va o'zi sig'adigan kichkina joy bo'lgan. Ikkinchi kishi sig'maydigan faqat o'zi uchun, ijodi uchun qurilgan kichkina uycha bo'lgan. Ko'rinib turibdiki Mengziyo Safarov o'zgacha tabiatli, ijodni sevadigan, adabiyotni sevadigan yozuvchi shoir bo'lgan. Yozuvchi o'qish vaqtlari Sayyora ismli kursdoshini sevadi va ular oila qurishadi.

1962-yilda o'qishni bitirgach Uzun tumaniga kelib Oydin nomli maktabda ayollari esa 58-sonli maktabda dars bera boshlaydilar.

U yerda 2 yil ishlaganlaridan so'ng Toshkentga ketib arxeologiya bo'limi Ilmiy akademiyasida ishlagan. M. Safarov oilasi bilan birga 1965-yilda Termiz shahriga ko'chib kelgan va shu yildan boshlab "Lenin bayrog'i" gazetasida Bo'lim boshlig'i vazifasida 1984-yilga qadar ishlagan. Tabiatga undagi jonzodlarga bo'lgan muhabbati tufayli yozuvchi 1986-yilda Amudaryo bo'yida joylashgan Afg'oniston va O'zbekistonni ajratib turuvchi Payg'ambar oroliga Qorovul bo'lib ishga kiradi. Orolida 3 yil ishlaydi. So'ng xastalik tufayli ishdan bo'shaydi. Mengziyo Safarov umrining oxiriga qadar tabiat bilan hamnafas yashaydi. 1994-yil 30-yanvarda revmatizm kasalligi tufayli 56 yoshda vafot etadi. Hozirda qabri Termizdagi Sulton Saodat qabristonida. Yozuvchi M. Safarovning ijodi 1964-yil noyabr oyidan boshlangan.

"Turnalar uchadi" nomli ilk qissasi 1965-yil "Sharq yulduzi" jurnalida chop etilgan.

Ushbu asarga nisbatan "Sharq yulduzi" redaksiyasi o'zining iliq fikrlarini bildirgan. Shu sondagi "Qalb dostoni" maqolasida Bolta Yoriyev "Turnalar uchadi" qissasiga taqriz yozyozgan. So'ng birin ketin yozuvchining "Olis qirlar ortida", "Qishloq maktabida", "So'qmoqdagi odamlar", "Ota huzurida", "Ayrishox" kabi qissalari. "Ota yurt", "Ona kaklik", "Tog'larda gulxan yonadi", "Lahza", "O'tayotgan kunlar", "Armon", "Sog'inch", "Bedanalar", "Chol va daryo", "Sevgi qo'shiqlari", "Qum qo'rg'onlar", "Dolg'ali daryo" kabi hikoyalari va "Sarbasta Surxon" nomli essesi chop etiladi. "Dolg'ali daryo" hikoyasi 1989-yilda "Guliston" jurnalida chop etilgan.

"Toshkent oqshomi" gazetasida yozuvchining "Olis qirlar ortida" nomli qissasiga Umarali Normatov o'z fikrlarini bildirib o'tgan. Bu qissa yozuvchining "Sharq yulduzi" jurnalida chop etilgan ikkinchi qissasi. Mengziyo Safarov ijodi albatta tanqidlardan chetda qolmagan. Anqoboy Quljonov o'zining "Zamonaviylik-asosiy mezon" nomli maqolasida M.Safarovning "Olis qirlar ortida" qissasiga tanqidiy fikrlarini bildirib o'tgan. Yozuvchining bir nechta asarlari tugallanmay, qo'lyozma holida qolgan. "Termiz" va "Amudaryo" asarlarini ham oxiriga yetmagan asarlari qatorida ko'rishimiz mumkin. "Ayrishox" asari yozuvchining vafotidan so'ng 2008-yil "O'qituvchi" nashriyotida chop qilingan asari. "Surxon tongi" gazetasida adibning "Talvasali rutubat" va "Osmontalash" nomli sherlari chop etilgan.

Mengziyo Safarov asarlari asosan tabiat bilan bog'liq asarlardir. Yozuvchi Bobotog'ni juda yaxshi ko'rgan va ko'p vaqtini o'sha yerga sayr qilish bilan o'tkazgan. Aynan tabiatni sevganligi, hayvonlarni sevganligi uchun ham o'z kasbini tashlab tabiat bag'riga yani Payg'ambar oroliga ishga o'tadi.

U yerda ko‘plab hayvonlarni kuzatadi. Ayniqsa Bug‘uni juda yaxshi ko‘radi. Tabiatni asrash, ekologiyani asrash Mengziyo Safarov ijodining asosiy mavzusidir. Adib tabiatni bahor fasliga o‘xshatgan va tabiat u uchun doimo yashnab turardi.

Adib bahor faslini juda yaxshi ko‘rardi. Yaqinlarining aytishicha yozuvchi olamdan o‘tganda osmonda Turnalar galasi uchgan, chunki adib turnalarni juda yaxshi ko‘rgan.

Ularning parvizlarini kuzatganda zavqlangan.

Nihoyatda tabiatsevar insonligini isboti desak xato bo‘lmaydi. U tabiat orqali milliy o‘zlik, estetik did, ma‘naviy-axloqiy tarbiya, zamonaviy ekologik madaniyat kabi muhim ijtimoiy-ruhiy masalalarni yoritadi. Shu sababli, Safarov ijodi o‘zbek adabiyotida tabiatni tasvirlash va anglashning o‘ziga xos maktabi sifatida baholanishi mumkin.

O‘zbek adabiyotida tabiat mavzusi doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Bu mavzu orqali adiblar nafaqat go‘zallik, balki jamiyat, inson ruhiyati, axloq, vatanparvarlik, bardavomlik va hayot falsafasi kabi murakkab tushunchalarni ifodalaganlar.

Shu nuqtai nazardan, Mengziyo Safarovning adabiy merosi– ayniqsa, uning tabiat tasviridagi yondashuvi o‘zbek poeziyasida alohida o‘rin egallaydi.

Mengziyo Safarov — tabiat kuychisi. Ammo bu “tabiat” tushunchasi faqat manzara yoki tabiiy hodisalar bilan cheklanmaydi. Uning she‘riyatida tabiat — bu inson qalbining oynasi, vatan timsoli, ruhiy poklanish manbai, falsafiy mushohada maydoni, estetik zavq va hissiyot uyg‘otuvchi vosita, tarbiyaviy ahamiyatga ega milliy qadriyatlar ifodasi.

Xulosa qilib aytganda yozuvchining deyarli har bir asarida tabiat obrazlari mavjud. Bu obrazlar oddiy manzara emas, balki murakkab, ko‘p qatlamli badiiy vosita sifatida ishlatiladi.

Daraxtlar — sabr va hayot timsoli, soylar — qalb sokinligi, yomg‘ir — ko‘z yoshi va poklanish, bahor — umid va yangilanish obrazlariga aylangan. Mengziyo Safarov tabiatni lirik qahramonning ruhiy holatini ifodalash uchun foydalanadi.

U tabiatga qarab o‘zini anglaydi, ichki dunyosiga nazar tashlaydi, jamiyat bilan bog‘lanadi. Bu o‘ziga xos psixologik poetik yo‘nalishdir.

REFERENCES

1. Mengziyo Safarov "Ayrishox" "O‘qituvchi"—2008.
2. "Sharq yulduzi" jurnali Toshkent 1965-yil.
3. "Guliston" jurnali Toshkent 1989-yil.
4. "Toshkent oqshomi" gazetasi.

5. "Lenin bayrog'i" gazetasi. 1965-yil.
6. Normatov U. "Ijod sehri". –Toshkent. "Sharq", 2007.
7. Maqsadqulov X. Termiz oqshomi gazetasi 2008-yil 10-son.
8. wikipedia. uz